

YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2020- yilda Buxoro viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YaHM) hajmi joriy narxlarda 30 758,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019- yil bilan taqqoslaganda 101,8 % ga o'sdi. YaHM deflyator indeksi 2019- yil narxlariga nisbatan 110,4 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaHMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 5,3 % ga yetdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari


| | | Mlrd. so'm | | O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da |
|---|--|-----------------|-----------------|---|
| | | 2019- yil | 2020- yil | |
| | I. YaHM | 27 377,8 | 30 758,1 | 101,8 |
| | <i>shu jumladan:</i> | | | |
|  | Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 25 172,2 | 29 709,4 | 101,7 |
|  | Mahsulotlarga sof soliqlar | 2 205,6 | 1 048,7 | 102,1 |
| | Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 25 172,2 | 29 709,4 | 101,7 |
|  | Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 11 171,0 | 13 786,4 | 101,5 |
| | Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 6 865,2 | 7 702,1 | 103,6 |
|  | sanoat | 4 953,5 | 5 373,8 | 100,6 |
|  | qurilish | 1 911,7 | 2 328,3 | 111,4 |
| | Xizmatlar | 7 136,0 | 8 220,9 | 100,3 |
|  | savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 1 855,0 | 2 209,2 | 103,4 |

| | | <i>Mlrd. so'm</i> | | <i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilga nisbatan % da</i> |
|---|--------------------------------------|-------------------|------------------|--|
| | | <i>2019- yil</i> | <i>2020- yil</i> | |
|  | tashish va saqlash, axborot va aloqa | 1 425,8 | 1 592,3 | 102,3 |
|  | boshqa xizmat tarmoqlari | 3 855,2 | 4 419,4 | 98,0 |

Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 15 892,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,4 % ga yuqoridir.



Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM hajmi va mutlaq o'sish sur'atlari



Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,6 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,4 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o`rmon va baliqchilik xo`jaligining YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi 46,4 % ni, sanoat tarmog`i 18,1 % ni, qurilish 7,8 % ni va xizmatlar sohasi 27,7 % ni tashkil qildi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha YaHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

| | | 2019- yil | 2020- yil |
|---|---|--------------|--------------|
| | I. YaHM, jami | 100,0 | 100,0 |
| | <i>shu jumladan:</i> | | |
|  | Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati | 91,9 | 96,6 |
|  | Mahsulotlarga sof soliqlar | 8,1 | 3,4 |
| | II. Tarmoqlarning yalpi qo`shilgan qiymati | 100,0 | 100,0 |
|  | Qishloq, o`rmon va baliqchilik xo`jaligi | 44,4 | 46,4 |
| | Sanoat (qurilishni qo`shgan holda) | 27,3 | 25,9 |
|  | sanoat | 19,7 | 18,1 |
|  | qurilish | 7,6 | 7,8 |
| | Xizmatlar | 28,3 | 27,7 |
|  | savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar | 7,4 | 7,4 |
|  | tashish va saqlash, axborot va aloqa | 5,7 | 5,4 |
|  | boshqa xizmat tarmoqlari | 15,2 | 14,9 |




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

2019- yil





2020- yil



YaHMning o`shishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o`shish sur`atlari bilan bog`liqdir. O`shish sur`atlari qishloq, o`rmon va baliqchilik xo`jaligida – 101,5 % (YaHMning tarmoqlar bo`yicha tarkibidagi ulushi – 46,4 %), sanoatda – 100,6 % (18,1 %), qurilishda – 111,4 % (7,8 %), xizmatlar sohasida – 100,3 % (27,7 %) ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida savdo, yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlarda – 103,4 % (7,4 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 102,3 % (5,4 %), boshqa xizmat tarmoqlarida – 98,0 % (14,9 %) qayd etildi.



YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha mutlaq o`shish sur`atlari (o'tgan yilga nisbatan % da)



2020- yilda YaHM o`shishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2020- yilda YaHM deflyatori indeksi 2019- yil narxlariga nisbatan 110,4 foizni tashkil etdi. YaHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 121,6 % va xizmatlar sohasida –114,9 % qayd etildi.



YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilga nisbatan % da)

